

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

ilova qilingan. Demak, mehtar Ubaydulla elchiligi Hindistonga Sultonbiy elchiligi Buxoroga qaytib kelganidan so'ng ko'p vaqt o'tmay yuborilgan va bu elchilikning asosiy vazifasi (Sultonbiy elchiligiga javoban Hindistondan kelgan elchilik orqali aytib yuborilgan) hind podshohining va'da qilgan mollarini Buxoroga tezroq yetkazib kelishidan iborat bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylar Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi bilan ko'plab elchilik aloqlari olib borgan. Jumladan, Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulixon, kabi hukmdorlar boburiyzoda hukmdorlar bilan yozishmalar olib borib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamladilar va yuqori pag'onaga ko'tardilar. Buxoro xonligi va Hindistondagi Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalarni tahlil etar ekanmiz, bu aloqalar ko'proq ikki tomonning Safaviylar sulolasi hukmronlik qilgan Eronga qarshi kurashda ittifoq tuzish rejasini amalga oshirish maqsadini ko'zlab olib borilganligini ko'rishimiz mumkin. Buxoro xonligi va unga tutash davlatlar muayyan manfaatlarni ko'zlab, ya'ni o'z chegaralariga yaqin joylashgan hududlar, xususan, Xuroson va hozirgi Afg'oniston yerlari ustidan nazorat o'rnatish uchun kurash olib bordilar. Ashtarxoniylar davrida mamlakatdagi tartibsizlar bo'lishiga qaramay, ma'lum darajada tashqi aloqalar rivojlandi.

BUXORO XONLIGI TA'LIM TIZIMI

Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi
Buxoro davlat universiteti "Tarixshunoslik, manbashunoslik
va ilmiy tadqiqot usullari" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
nargizaisomiddinova4@gmail.com

Feruza Bobojonova Xayatrova
BuxDU Buxoro tarixi kafedrasasi dotsenti, tarix fanlari
nomzodi
bobojonova.feruza.71@mail.ru

Ta'lim dargohlari azaldan shaxs va jamiyat ma'rifatini shakllantiradigan maskanlar bo'lgan. Ajdodlarimiz qadimda ularni "madrasa" va "maktab" deb atashgan. Madrasalar tarixi, ulardan yodgorlik bo'lib turgan sirli obidalar millatni o'z o'tmishi bilan tez hamda oson tanishtiradi. Ayrim xorijiy tadqiqotchilar Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlarda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan madrasalar haqida ilmiy ma'lumotlar yetarli emasligini ta'kidlaydi. Germaniyalik sharqshunos Anke fon Kiyugelgen mujaddidiya-naqshbandiya tariqati vakillarining Buxoro xonligidagi faoliyati haqida so'z yuritib: "O'quv ta'lim muassasalarining qanchaligi to'grisida aniq axborotga ega emasmiz va ta'lim darsturidan mutlaqo bexabarmiz. Xanikov madrasada o'qitiladigan yuzdan ortiq kitob nomini keltirgan. Boshqalarini talabalar mustaqil o'rganishi lozim edi. Sharqshunos Demezov 1834-yili madrsalarning biridagi o'quv jarayonida bir oydan oshiq ishtirok etadi va o'nga yaqin muallif va kitob nomini sanab o'tadi", - deb yozgan edi. Buxoro madrasalari faoliyati tarixiga oid maxsus tizimga solingan ma'lumotlar XX asr boshlaridayoq paydo bo'a boshlagan. Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif maxdum Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy, Muhammad Ali Baljuvoni, Sayyid Mansur Olimiy kabi mualliflar Buxoro madrasalari tarixi haqida ma'lumot berishadi.

Buxorodagi birinchi an'anaviy maktab 714-yili Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkida, zartushtiylar ehromi o'rnida bunyod etilgan. Maktablar ko'p hollarda ayrim badavlat shaxslarning xayr-ehsonlari evaziga, ba'zan esa masjidlariga tushgan daromad evaziga qurilgan. O'rta Osiyoda an'anaviy ta'lim ikki bosqich: quyi –boshlang'ich maktab va yuqori – madrasa bosqichidan iborat edi. Buxoroda VIII asr oxiri IX asr boshlarida madrasalar qurila boshlangan. Kalobod va G'aribiya madrasalari eng qadimgi madrasalar tarkibiga kiradi. Buxoro madrasalarida haftada to'rt kun (Shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) dars o'tilgan. Chorshanba, payshanba va juma ta'til edi. Dars bomdod namozi va nonushtadan keyin boshlangan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan. Buxoro madrasalari moddiy ta'minoti asosi vaqf mulklari edi. Vaqf mulklariga ega bo'lgan barcha

madrasalarda qonuniy belgilangan nizom asosida ish yuritilar edi. Buxoro shahri madrasalari orasida vaqfsizlari ham bor edi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushr solig'i maqsadli ravishda asosan, faqir va miskinlar manfaati uchun yig'ilgan hamda ularga berilgan. Ko'hna Buxoro o'zining ko'p sonli madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Bu an'ana keying asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so'z ketganda avvalo, uning shu jihati bilan ta'riflaganlar. Xususan, ashtarxoniylar davri muarixi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini aholaydi: "Olimlarning ko'pligidan uni olimlar va ilm-fan bulog'i" deb ataydilar. Buxoroga XIX asrda safar qilgan Meyendorf esa Buxoroning islom olamida tutgan o'rnini quyidagicha tariflaydi: "O'zining ko'plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u "sharif" nomiga sazovor bo'lgandir. "Rus sayyohi Xanikov o'z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma'rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta'riflab, "Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanaydi" deydi. Buxoroda yirik madrasalar hujralar, toqli, ravoqli, ichki-tashqi sahnli masjid, darsxona, tahoratxona, kutubxona, darvoza, hovuzli majmua va kichik madrasalar odatda faqat hujralardan iborat bo'lgan. Buxoro madrasalarining jismoniy sharoiti va sinflari haqida gapiradigan bo'lsak, eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, madrasalar shaharlarda yoki katta qishloqlarda joylashgan. Kichik qishloqlarda madrasani uchratish juda kam edi. Shaharlardagi madrasalar odatda bozorlarda joylashgan va madrasa binosi alohida inshootga ega edi. Uning hovlisida masjid va hujra kabi bo'limlar bo'lgan. Hujralarda qolgan talabalar sovuq yomon ob-havoda isinish uchun xonaning polida teshik bo'lib, u yerga ko'mir qo'yib, uni yoqishgan. Stolni uni ustiga qo'yib o'quvchilar qo'llarini va oyoqlarini qo'yish uchun yopgan va shu tarzda isinishgan. Madrasalarning ko'pchiligi davlatga qarashli bo'lmagani uchun ular xususiy shaxslar tomonidan qurilib, ularning xarajatlari ha ayni shu kishilar tarafidan qoplangan. Ular odatda davlat arboblari edi, shuning uchun madrasalarga o'z nomlarini berishgan. Ba'zi madrasalar o'zlari joylashgan shahar nomi bilan atalgan.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, Buxoroda qadimdan ilm-fan rivojlanib kelgan va bu Shayboniylar, Ashtarxoniylar davrida ham davom etgan. Hozirda Buxoroning Eski shahar qismida joylashgan shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan masjid, madrasalarning asosiy qismi Buxoro xonligi davrida qurilgan desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonov Akbar, Subxonov Farrux. Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari. – Toshkent: 2021.
2. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро хонлиги таълим тизими тарихи. – Т.: Академнашр, 2017.
3. F.Bobojonova. Buxoro madrasalari manaviyat durdorasi. – Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2021
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyas. V.j. – Toshkent: O'zME, 2003. – B.377.
5. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. Tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Y. Yusupova va U. Hamroyev. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti davlat korxonasi. – Toshkent: 2020. –B. 8
6. XIX. YÜZYILDA BUHARA MEDRESELERİ – İnci Yelda ŞAFAKCI. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 9/4 Spring 2014

Kamolov Ixtiyor Nigmatullayevich. BUXOROLIK TAKINAXOTUN VA UNING SOHIBQIRON O'GLI.....	80
Olimova Iroda. BUXORO BUNYODKORLIGIDA MIRZO ULUG'BEKNING AMALGA OSHIRGAN SAY-HARAKATLARIDAN TARIXIY LAVHALAR.	81
Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi, Normatov Otabek Maxamatjonovich. BUXORODAGI MIRZO ULUG'BEK DAVRIGA OID TANHO INSHOOT – “ULUG'BEK MADRASASI” ...	84
Islomova Gulchiroy Muzaffar qizi, Utayeva F.X. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TIJORAT VA SAVDO MARKAZLARIGA E'TIBOR.....	87
Avliyakulova Nafisa Muzafarovna. BUXORO – XALQARO SAYYONCHILAR MARKAZI	88

**2-ШҶЪБА. БУХОРОНИНГ ХОНЛИКЛАР (АМИРЛИК) ДАВРИ
(ШАЙБОНИЙЛАР, АШТАРХОНИЙЛАР ВА МАНҒИТЛАР) ТАРИХИ
МАСАЛАЛАРИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-
ФАН, САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ).....92**

Ғаффоров Ш.С. БУХОРО ХОНЛИГИНИНГ АНТОНИ ЖЕНКИНСОН ЭСТАЛИКЛАРИДАГИ ТАВСИФИ	92
Шодмон Воҳидов, Гулпари Шарифова. (НА ОСНОВЕ КАТАЛОГА БИБЛИОТЕКИ САДРИ ЗИЯ).....	96
Абдукаримов Жамолiddин Аҳмадалиевич. Мирзо Абдулазим Сомий Бўстонийнинг “Тўхфаи шоҳий” асарига оид янги тадқиқот	100
Дилноза Жамолова. “ТАЪРУФИ МУСЛИМИН” ЖУРНАЛИ: БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ҲАҚИДА	103
Музробжон Абдуллаев, Расулбек Абдурасулов. АШТАРХОНИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРО ХОНЛИГИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СОЛИҚ ТИЗИМИ.....	107
Акбар Замонов. АБДУЛЛАХОН II ШАХСИЯТИГА НАЗАР	110
J.J.Majidov, H.Bobomurodova. SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO ME'MORCHILIGI.....	114
Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li. ASHTARXONIY UBAYDULLAXON II DAVRIDA BOBURIYLAR IMPERIYASI BILAN DIPLOMATIK ALOQALAR	115
Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi, Feruza Bobojonova Xayatovna. BUXORO XONLIGI TA'LIM TIZIMI.....	117
Гулирухсор Темирова. МИР МУҲАММАД АМИН БУХОРИЙ ВА УНИНГ “УБАЙДУЛЛАНОМА”.....	119
Norova Zilola Raxmatullo qizi, Utayeva F.X. BUXORO VA XIVA XONLIKLARINING TASHQI SAVDO ALOQALARI	121
Olimova Dilsora, Bobobjonova Feruza. BUXORO AMIRLARINING KUNDALIK DINIY ANKOMLARI.....	122
Dusaliev Muysin Tura o'g'li. XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO'QON-BUXORO MUNOSABATLARI	126
Berdiyev Jamshid Panjiyevich. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR	129
Ҳусен Хайруллоевич ДЖУРАЕВ. БУХОРО САРОЙ ВА МАДРАСАЛАРИ, КУТУБХОНАЛАРИДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТГАН МИРЗА, МУНШИЙ, ХАТТОТЛАР ВА КОТИБЛАР ТАРИХИ.....	132
Соҳиба ҚОДИРОВА. БУХОРОДА МУСИҚА САНЪАТИ РИВОЖИНИНГ МИЛЛИЙ-ЭТНИК ХУСУСИЯТЛАРИ	135
Ismailov G'afurjon Xasanovich. ISTANBULDAGI BUXORO TEKKESI – O'TMISH VA BUGUN.....	138
Normatov Otabek Maxamatjonovich. BUXORODAGI SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI TARIXIDAN.....	143
Hamroyev Asliddin Umed o'g'li. AMIR HAYDAR MAKTUBLARIDA IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI	144